



INSON – MUQADDAS

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Har qachon, inson va uning manfaatlariga e'tibor katta bo'lgan. Zero, yoshlarimiz bizdan ko'ra, albatta, baxtli bo'lishi kerak. Bu borada davlatimiz rahbarining olib borayotgan barcha islohotlarida, avvalo, inson manfaatlarini asosiy o'rinda turadi. Jumladan, Uchinchi Renessansdan ko'zlangan maqsad ham shudir.

Bugunga kelib farovon hayot kechirayotgan aholi soni o'sish darajasi jadal sur'atlarda oshib bormoqda. Jahon Baxtiyorlik Hisobotining 2006-2019-yillardagi ma'lumotlari asosida O'zbekiston uchun hisoblangan indeksda umumiy o'sish sur'ati kuzatiladi. 2017-yilda ushbu indeks – 6.42 qiymat bilan eng yuqori darajani ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida xalq farovonligining o'sish darajasi oshib borayotganidan dalolatdir. Bugun biz bu darajani yanada salmoqli raqamlar bilan oshirib borishimiz kerak. Buning uchun tibbiyot soha vakillarining mas'uliyati katta. Chunki aholi salomatligi har qachon ustuvor mavzu hisoblanadi. Texnika asri atalgan bugungi globallashuv davrida hech bir noma'lum kasallik aholi salomatligiga ziyon yetkizmasligi lozim. Buning uchun tibbiyot soha vakillaridan katta jasorat va mehnat talab qilinadi.

Tinch va osuda o'tayotgan har lahzaning qadriga yetish kerak. Negaki, buning zamirida qancha-

dan qancha qahramonlarning jasorati yotibdi. Shu xususida, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, iymoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtiromlar ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi. Buning misoli tariqasida yurtimizda 9-may – “Xotira va qadrlash kuni” deb nishonlanadi. Yurtboshimizning bu boradagi Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarini mukofotlash to'g'risidagi farmon va qarorlari ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga ko'rsatilayotgan ehtiromning yana bir yorqin ifodasidir. Mazkur farmon va qarorlariga muvofiq barcha shahar va tumanlarimizda, qishloq va mahallalarimizda urush qatnashchilari va nogironlariga yubiley medallari va pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. O'tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e'zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlaridan sanaladi.

9 may – G'alaba kuniga Xotira va qadrlash kuni deb nom berilganiga 22 yil to'lmoqda. Bugungi kunda hech ikkilanmasdan aytish mumkin: bunday nom olgan bu sana yurtimizda umumxalq bayramiga, haqiqiy an'anaga aylanib qoldi. Chunki xotira va qadrlash tushunchalari asl milliy qadriyatlarimizga xos bo'lib, ota-bobolarimizdan qolgan ham diniy, ham insoniy urf-odatimizdir.

O'tganlarning nomlarini yod etish, xotirasini hurmat bilan eslash, ularning arvoqlarini shod qilish muqaddas odat sifatida qon-qonimizga singib ketgan. Aynan shu maqsadga erishish yo'lida Vatanimizning erangi kuni, kelajagi bo'lmish, bizing tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, farzandlarimizga zamonaviy bilim berish va ularni haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish eng ustuvor vazifamiz ekaniga aynan har bitta ta'lim muassasalari javobgarlikni his qilgan holda yondashishlari darkor. Bugungi ta'lim-tarbiya erangi kunga javob bermasligi mumkin. Demakki, darkor bo'lsa soniyalarda ham yangicha talqin bilan ilm o'rgatish lozim. Buning uchun Vatanni sevish kifoya qilmaydi. Muntazam mehnat va harakatning zamirida yuksak bilim yotadi.

Inson – muqaddasdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlarga qarata: “Sizlar ko'p kitob o'qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o'tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg'oniy-lar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug'bek va Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham insoniyatga xizmat qilmoqda”, - deya ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, ajdodlar kamoliga munosib kamolotli avlodni tarbiyalash – barcha ota-ona va ustozlarning sharaffi burchi sanalsa, ushbu burchni ado etish Vatan oldidagi eng ustuvor vazifamizdir!

TARBIYA MAHALLADAN BOSHLANADI

Xalqimizda: “Bir farzandga yetti mahalla ota-ona”, - degan naqlning o‘zi ko‘rsatadiki, azaldan ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan e’tibor kuchlidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 29-apreldagi 202-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent pediatriya tibbiyot institutida 2021-yil 7-mayda 231-son ichki buyruq rasmiylashtirilganligini yuqoridagi naqlning yaqqol dalilidir. Ushbu buyruq bilan Yunusobod tumanidagi institutga yaqin 10 ta – “Posira”, “Obod”, “Oqtepa”, “Mehnatobod”, “Beg‘ubor”, “Sevinch”, “Uvaysiy”, “Shoshtepa”, “Yurtobod” va “Bobodehqon” MFYlari tanlab olinib, 3 ta prorektor, 4 ta fakultet dekani va 3 ta bo‘lim boshlig‘i mas‘ul etib birlashtirildi, MFYga va umumta’lim maktablari bilan o‘zaro hamkorligini yanada mustahkamlash hamda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashish bo‘yicha amalga oshiriladigan vazifalar, yoshlar bilan “mahallabay” ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha joriy yilning 7-may kuni institut rektori, professor B.Daminov rahbarligida Shtab shakllantirilgan hamda barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlariga birlashtirilgan MFYlarda “Uyushmagan yoshlar bandligini ta’minlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashish”, “Uyushmagan yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga ko‘maklashish hamda ijarada yashovchi talabalar bilan ishlash”, “Mahalladagi

uyushmagan yoshlar o‘rtasida 5 muhim tashabbusni amalga oshirish”, “Mahalladagi umumta’lim maktablari ta’lim sifatini oshirish va aniq fanlarning o‘qitilishini takomillashtirish va OTMga tayyorlov kurslarini tashkil etish”, “Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni targ‘ib qilish”ga doir vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan.

MFYlarga birlashtirilgan mas‘ul rahbarlarga yordamchi sifatida 3 tadan kafedralar ham mas‘ul etib belgilanib, 7-maydan e’tiboran, MFYlarda belgilangan vazifalar yuzasidan mas‘ul rahbarlar, MFY raislari va uchastka profilaktika nozirlari ishtirokida “Uyushmagan yoshlar”, “Temir daf-tar”ga kirgan yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar ro‘yxati shakllantirilgan. Bugungi kunda ushbu MFYlarda 18-30 yoshdagilar soni 14461 ta, uyushmagan yoshlar 68 ta, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlar 70 tani tashkil etadi.

Qaror ijrosi sifatida 7-31-may kunlari davomida mas‘ullar tomonidan 17-nafar uyushmagan yoshlarning murojaatini qabul qilinib, ulardan 11 tasi ijobiy hal qilindi. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash uchun 66 nafar iqtidorli talabalar jalb etildi va ular tomonidan 30 ta uchrashuvlar tashkil etildi. MFYlarda ijarada yashovchi 94 nafar talaba aniqlanib, ulardan 34 tasining yashash sharoiti o‘rganilib, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatilmoqda. Besh muhim tashabbus (musiqa, san‘at, rassomchilik, sport, AKT kitobxonlik madaniyatini shakllantirish) bo‘yicha tashkil etilgan 8 ta to‘garakka 188 ta yoshlar jalb etilgani ham bunga misoldir. MFYlarda ro‘yxatga olingan yoshlar uchun 1,8 mln so‘mlik sport inventarlari, badiiy adabiyotlar taqdim etilib, MFYda taniqli shoir va yozuvchilar bilan 6 ta ijodiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Zero, yurtimizning barcha yoshlari bizning farzandlarimiz, ularning ta’lim va tarbiya olish oliy ta’lim muassasalarining burch va vazifasidir.

A.XUDAYBERDIYEV

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

СТРАНИЦА ПАМЯТИ

Ушла из жизни **ГРУНИНА ОЛЬГА СТАНИСЛАВОВНА**, ассистент кафедры факультетской педиатрии. Её безвременная кончина буквально потрясла многих сотрудников института и студентов.

Ольга Станиславовна родилась 07.12.1973 г. в Ташкенте в семье служащих: отец – инженер, мать – врач. Училась в школе № 205 с биологическим уклоном Мирзо-Улугбекского района. Институт окончила институт с красным дипломом, а затем клиническую ординатуру по педиатрии на кафедре госпитальной педиатрии. После окончания клинической ординатуры с 1998 г. по 2016 г. работала ассистентом кафедры пропедевтики детских болезней. Одновременно дежурила в клинике института.

Регулярно по графику Республиканской сан.авиации консультировала тяжелых больных в различных областях, нередко даже оставаясь на ночь у постели больного ребенка, наблюдая динамику его состояния. Участвовала в командировках по шефской работе в прикрепленных медицинских учреждениях республики. Принимала активное участие в кафедральных, клинических и научно-практических конференциях на уровне института и Минздрава, на съездах педиатров.

Очень любила свою работу. Практические занятия проводила с большой ответственностью на русском, узбекском и английском языках, которыми свободно владела. Её практические занятия всегда сопровождалась тематическими наглядными пособиями. Зав.кафедрой доверял ей читать лекции по пропедевтике на русском и узбекском языках, она щедро делилась своими знаниями и опытом с молодыми ассистентами и врачами. Очень любила и не «боялась» больных детей, особенно грудного возраста.

Ежегодно была куратором в студенческих группах. Постоянно организовывала посещения музеев, исторических и религиозных памятников, концертов. Посещала студентов по месту жительства.

Помимо «Пропедевтики детских болезней» Ольга Станиславовна преподавала «Общий уход за больными» на 2 курсе, а также «Сестринское дело». Была требовательной и справедливой к студентам. Будучи прекрасным клиницистом, все практические занятия проводила у постели больных, передавая студентам опыт клинического мышления, умение работать над постановкой диагноза и назначением оптимальной терапии и клинического наблюдения за пациентом.

Ольга Станиславовна вела научную деятельность. Была ответственной по СНО. Работала над кандидатской диссертацией, которая была завершена к 2010 г. Прошла начальные этапы защиты, но завершить защиту не удалось по причине отмены кандидатских диссертаций.

В списке её научных 68 печатных работ, их них 5 учебно-методических рекомендаций, 1 учебник, научные статьи в отечественных и зарубежных журналах. По теме диссертации опубликовано 18 научных трудов, в том числе 3 журнальные статьи, 11 тезисов, 1 Рац.предложение, 1 Акт внедрения, Информационное письмо, Методические рекомендации.

Постоянно работала над повышением своих профессиональных и практических знаний. Прекрасно владела педагогическими навыками. Как талантливый педагог, она умела мотивировать студентов.

Постоянно проводила экспертизу историй болезни умерших в клинике детей с подробным и глубоким научно обоснованным анализом возможных нарушений в тактике диагностики и лечения их на разных этапах. Эти рецензии постоянно использовались на клинических и патолого-анатомических конференциях.

Ольга Станиславовна пользовалась заслуженным авторитетом у сотрудников института, коллег по работе, а также студентов, её всегда характеризовали скромность, воспитанность, тактичность, порядочность, дружелюбие, профессиональная компетентность, коммуникабельность, обязательность и требовательность к своим ученикам и к себе, глубокое уважение и почитание своих учителей и наставников и другие качества. Была прекрасной мамой, женой, внимательной и любящей дочерью. Много внимания уделяла воспитанию сына.

Ольга Станиславовна была всесторонне развитой творческой личностью. Она училась в музыкальной школе, играла на фортепиано и сочиняла песни. Кроме того, в газете «Педиатр» печатались её стихи. Она оставила семье неопубликованный роман в стихах в двух томах «Хрустальный шар». Прекрасно танцевала танцы народов мира.

В 2016 г. она перешла на кафедру факультетской педиатрии, где продолжала свою работу со свойственными ей деловыми качествами и оптимизмом.

Ольга Станиславовна ежегодно проводила производственную практику. Осуществляла консультативную работу в отделениях клиники. Участвовала в приемной комиссии института. Несмотря на очень плохое самочувствие, летом 2018 г. она продолжала руководство практикой студентов до её окончания. И сразу же была командирована на вступительные экзамены, во время которых в один из дней она потеряла сознание. Но при этом не стала покидать работу в комиссии, так как считала своим долгом выполнить это поручение до конца. Как сказал в последствии нейрохирург – время было потеряно... В полной мере к Ольге относятся слова «Светя другим, сгораю сам»...

Грунина О.С. после тяжелой болезни ушла из жизни 3 июля 2019 г., оставив о себе светлую память.



Х.АБИДОВ



Памяти отца

Ты этой зимой рядом со мной,
 Ты в сердце паришь, ты пахнешь весной.
 В длинной череде годов, ты всё глубоко.
 Я верю, что ты счастлив,
 Хотя от нас далеко.
 Прости, что не успела попрощаться,
 Прости, что не успела многого понять,
 Ты для меня таким же как и был остался,
 Я в памяти храню и не посмею испугаться,
 Мне суждено было с тобой так рано
 попрощаться,
 И снова без тебя мне утром просыпаться.
 Я больше не реву, я научилась с болью жить, не
 преклоняться.
 Молитвой душу твою кормить
 И продолжать как раньше улыбаться.
 Продоходят дни, уходят ночи,
 Ты просто сверху береги,
 Я буду дальше жить, твоя доча...

Азиза ИБРАГИМОВА

Donolar o'giti

Lev TOLSTOY

- Har qanday jismoniy mashaqqatga chida, qiynalganingni boshqalarga bildirma.
- Har kuni zaifroq biladigan tilingda she'r yodla.
- Qo'lingdagi mulkning o'ndan birini ehson qil.
- O'n barobar boyib ketsangda, hayot tarzingni o'zgartirma.
- Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol – foydasini ham, zararini ham ko'r.
- O'zing bilmagan yoki yoqirtmaydigan odamlarning maqtovini olishga urinma.
- Har tong kunlik reja tuz va uni, albatta, bajar.
- Boshqalarning fikrini o'ylab o'tirgandan ko'ra o'z ustingda ko'proq ishla.
- Shuhrat uchun sarf-xarajat qilma.
- O'zing uchun iloji boricha ko'p mashg'ulot o'ylab top.
- Bir o'zing yakunlashing mumkin bo'lgan ishga yordamchi talab qilma.
- Hech qachon hissiyotlaringni oshkor qilma.
- Yaqin kishingni o'zingday yaxshi ko'r; ikki yaqin kishingni esa o'zingdan ham ko'proq yaxshi ko'r.
- Iloji boricha kam uxla.
- Har tun kunduzi o'rganganlaringni takrorla.
- Ortiqcha narsangni o'zing uchun emas, jamiyat uchun ishlat.
- Yaxshilik qilishga imkon izla.
- Yaxshi bo'l va sening yaxshi ekaningni hech kim bilmasligiga intil.
- Hammani birday yaxshi ko'r; bu muhabbatdan o'zing ham chetda qolma.
- Elning muhabbati uchun mayda tuyg'ulardan voz kech.
- Sharoit qancha yomon bo'lsa, harakatni shuncha kuchaytir.
- Bor narsalarga qanoat qil.
- Biror ishni boshlasang, oxiriga yetkazmay tashlab ketma.
- Yaqinlaringning hayoti shirin bo'lishiga hissa qo'sh.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI: Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish.


DOTSENTLAR: Fakultet bolalar xirurgiyasi.

O'QITUVCHILAR: Pedagogika va psixologiya.

ASSISTENTLAR: Anatomiya; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedevtikasi; 2-Gospital pediatriya noana'naviy tibbiyot asoslari; Tibbiy radiologiya; Gospital bolalar xirurgiyasi; Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi; Klinik farmakologiya; Gistologiya; Ambulatoriya tibbiyoti; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 11.05.2021.

 <p>PEDIATR</p> <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ORGAN TRUDOVOGO KOLLEKTIVA TASHKENTSKOGO PEDIATRICHESKOGO MEDITSINSKOGO INSTITUTE</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kудayberganov, Nashr uchun mas'ul: R. G'ochchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------